INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

NEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH OMILLARI

Avlayeva Saida Bozorovna,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, dotsent

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19967401

Annotatsiya. *Ushbu maqolada neologizmlarning shakllanishi va rivojlanish omillari lingvistik hamda ijtimoiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Neologizmlar tilning leksik tizimida yangi tushuncha, predmet va hodisalarni ifodalovchi birliklar sifatida yuzaga kelishi, ularning ichki til resurslari va tashqi ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanishi yoritiladi. Maqolada fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy o'zgarishlar, ommaviy axborot vositalarining rivoji kabi ekstralingvistik omillar hamda tilning ichki qonuniyatlari neologizatsiya jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *neologizm, leksika, neologizatsiya, lingvistik omillar, ijtimoiy omillar, so'z yasalishi, til taraqqiyoti, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье анализируются факторы формирования и развития неологизмов с лингвистической и социальной точек зрения. Рассматривается возникновение неологизмов как языковых единиц, обозначающих новые понятия, предметы и явления, а также их формирование под влиянием внутренних ресурсов языка и внешних социальных факторов. Особое внимание уделяется роли научно-технического прогресса, социальных изменений и средств массовой информации как экстралингвистических факторов, а также внутренним закономерностям языка в процессе неологизации.*

Ключевые слова: *неологизм, лексика, неологизация, лингвистические факторы, социальные факторы, словообразование, развитие языка, инновации.*

Abstract. *This article analyzes the formation and development factors of neologisms from both linguistic and social perspectives. Neologisms are examined as lexical units that emerge to express new concepts, objects, and phenomena, formed under the influence of both internal language resources and external social factors. Special attention is given to scientific and technological progress, social changes, and the development of mass media as key extralinguistic factors, as well as to internal linguistic mechanisms driving neologization.*

Keywords: *neologism, lexicon, neologization, linguistic factors, social factors, word formation, language development, innovation.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda tilning doimiy rivojlanishi va yangilanish jarayonlari muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida til tizimida yangi tushunchalarni ifodalovchi birliklar – neologizmlar vujudga kelmoqda. Ushbu yangi so'zlar nafaqat tilning boyishiga xizmat qiladi, balki jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlarning bevosita aksidir.

Til jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun u bilan doimo hamnafas va birga rivojlanadi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan yangicha munosabatlar, yangi narsa va hodisalarni ifoda qilish, ishlab chiqarishni

jadallashtirishga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, til tizimiga hali o‘zlashib ketmagan so‘zlar **neologizmlar** deb ataladi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda o‘zaro yaqin fanlar – neologizmlar leksikologiyasi (neologiya) va neologizmlar leksikografiyasi (neografiya)ning rivoji haqida so‘z yuritilmoqda. Fransuz lingvistlari neologiyaning nazariy va metodik masalalariga asosiy e’tiborni qaratmoqdalar. Ingliz va Amerika tilshunoslari esa, asosan, amaliy leksikografik muammolarni hal etishga e’tibor qaratadilar. Nemis neologiyasi esa yangi so‘zlarni tadqiq etishni ikki lingvistik soha – leksikologiya va leksikografiya doirasida birgalikda olib boradi.

Moddiy ne’matlar olamida yoki jamiyatdagi urf-odatlar hamda kishilarning ma’naviy hayotida yuz beradigan har qanday o‘zgarish adekvat (ya’ni aynan mos) nomlashni talab qiladi. Shu sababli ham til tizimida yangi so‘zlar – neologizmlar paydo bo‘ladi. N.D. Yatsuk fikricha, neologizmlar obyektiv borliqdagi yangi predmet yoki hodisalarga nom berish uchun yaratiladi va tilning lug‘aviy qatlamidan o‘rin olishga mo‘ljallangan. «Ular intellektual-kommunikativ vazifani bajarishga xizmat qiluvchi atov (nominativ) leksik birliklar sifatida paydo bo‘ladi va shakllanadi» [11.18].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda neologizmlarning shakllanishi va rivojlanish omillarini aniqlash maqsadida deskriptiv, qiyosiy hamda tizimli-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Lingvistik va ekstralingvistik omillar o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilib, turli ilmiy manbalar asosida nazariy umumlashtirish amalga oshirildi. Shuningdek, neologizmlarning qo‘llanish xususiyatlarini yoritishda kontekstual va funksional yondashuv elementlari tatbiq etildi.

Tahlillar va natijalar. Neologizmlar quyidagi xususiyatlari bilan tilning lug‘at tarkibida ajralib turadi:

– yangi tushuncha, predmet yoki hodisani nomlaydi;
– avval mavjud bo‘lgan predmet yoki hodisaning belgilarini farqlaydi;
– tildagi vositalarni tejaydi;
– fikrni aniqroq ifodalash uchun xizmat qiladi.

Neologizmlar tilning ichki resurslari va boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish, ya’ni tashqi ta’sir natijasida paydo bo‘ladi. «Leksika tilning tez o‘zgaradigan qatlami bo‘lib, doimiy ravishda takomillashib, yangilanib boradi, shu bilan birga bizni o‘rab turgan voqelikdagi o‘zgarishlarga tegishli tartibda javob qaytaradi, ya’ni ijtimoiy hayot bilan birga taraqqiy etadi» [6, 46]. Darhaqiqat, til taraqqiyotini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich uning leksikasidir. Unda xuddi oynadagidek jamiyatning holatini ko‘rish mumkin. O‘z-o‘zidan tushunarliki, mos tushunchalarni ifodalash zarurati bo‘lmasa, yangi so‘z paydo bo‘lmaydi. Yangi predmet va voqealarni anglash yoki

jamiyat hayotida qandaydir yangilikning sodir bo‘lishi nom berish ehtiyojini keltirib chiqaradi, buning natijasida yangi so‘z va iboralar paydo bo‘ladi yoxud oldindan mavjud so‘zlarda yangi ma’nolar hosil bo‘ladi [10.15].

Sanoatlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyot asrida, xalqaro ahamiyatga molik voqealarga to‘la tezkor ijtimoiy-siyosiy hayot jarayonida tilning leksik qatlami boyib, takomillashib boradi. Ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarish va jarayonlar jahonning barcha mamlakatlari tillarida bevosita o‘z aksini topadi. «Yangilik doimo borliqni chuqur anglash, anglangan obyektlarning ilgari noma’lum bo‘lgan belgi va xususiyatlarini aniqlash natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun neologizmga xos yangi bilimlarni aniqlash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi» [5.4].

Til taraqqiyotini tushunish uchun uning mavjudligi va harakatlanish dinamikasini o‘rganish zarur. Fan va ishlab chiqarish gurkirab rivojlangan zamonamizda professional sheva va so‘zlashuv tillari tez taraqqiy etib, yangi so‘zlar paydo bo‘lmoqda. So‘z yaratish har kuni, har soatda, har bir mikrostrukturada ro‘y beradi. Yangi so‘z va so‘z birikmalari ijtimoiy-siyosiy mazmundagi gazeta va jurnallarda o‘z aksini topadi. Yangi so‘zlar tilga nafaqat yangi tushunchalarning dunyoga kelishi bilan bog‘liq holda, balki oldindan mavjud so‘zlarga sinonim bo‘lgan emotsional-ekspressiv leksikaga nisbatan til egalari ehtiyoji tufayli ham paydo bo‘ladi, degan fikrga ko‘plab tilshunoslar qo‘shiladilar [9.25].

Yangi so‘zlar (shuningdek, so‘z ma’nolari) yangi predmetlarni nomlash yoki mavjud predmetlarga biroz boshqacha munosabat bildirish, yoxud ularni boshqacha tasvirlash zarurati yuzaga kelgandagina paydo bo‘ladi. Yangi so‘zlar tilda mavjud elementlardan (so‘z, o‘zak, so‘z yasovchi qo‘shimchalar) odatiy so‘z yasash usullari orqali, mavjud modellarga asoslangan holda yaratiladi.

Zamonaviy tilshunoslikda til murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Bu tizimning yo‘nalishi va evolyutsion xususiyatlari dialektikaning umumiy qonunlari bilan bog‘liq. Tillar tabiatining dinamikligi ularga keskin o‘zgarishlar, voqealar va kutilmagan vaziyatlarga moslashish imkonini beradi. Til taraqqiyoti uning leksikasida o‘z ifodasini topadi va bu jarayon leksik qatlamning o‘ziga xos xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir.

Leksika taraqqiyotida asosiy jarayon sifatida til lug‘at tarkibining turli shakl va yo‘llar orqali o‘zgarishini tilshunoslar **neologizatsiya jarayoni** deb hisoblaydilar, chunki aynan shu jarayon tilning rivojlanishini yaqqol aks ettiradi.

Nutqiy muloqot jarayonining samarali kechishi uchun neologizmlarni chuqur va har tomonlama o‘rganish tilshunoslik fani oldida turgan muhim vazifalardan

biridir. Tilning lug‘at tarkibi ochiq tizim bo‘lib, uning boyishi yangi so‘zlar, yangi ma’nolar hamda yangi so‘z birikmalari va iboralarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Tilga yangi so‘zlarning kirib kelishi va ularni o‘rganish zaruriyati leksikologiyaning maxsus bo‘limi – neologizmlar haqidagi fan, ya’ni **neologiya**ning shakllanishiga asos bo‘ldi. Neologiyani o‘rganish insonlarning ijtimoiy ongini tadqiq etishning muhim yo‘llaridan biri hisoblanadi, chunki til lug‘at tarkibining evolyutsiyasi muhim ijtimoiy jarayonlarni aks ettiradi. Doimiy o‘zgarishda bo‘lgan tashqi olam ta’siriga javoban inson til vositalaridan foydalanish orqali tilni uzluksiz ravishda takomillashtirib, uni o‘zgartirib boradi.

Neologiya nazariyasi germanistikada hamon leksikologiyaning mustaqil sohasi sifatida qayd qilinmagan. U XX asrning oxirida vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda jadal sur’atlar bilan taraqqiy etmoqda.

Til birliklarining qo‘llanish xususiyatlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borishi leksikaning kengayishi va yangilanishining muhim yo‘llaridan biri bo‘lib, bu jarayonni neologiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Neologiya tilga yangi kirib kelgan leksik birliklarni o‘rganadigan fan hisoblanadi.

«Neologizatsiya sathlararo jarayon bo‘lib, u nafaqat alohida individ yoki jamiyat so‘z boyligining ayrim birliklariga, balki barcha birliklarga hamda ularning frazeologiya, morfologiya va so‘z yasash tizimlari bilan o‘zaro aloqasiga ham taalluqlidir» [8.42]. Ko‘pchilik so‘zlar tilda paydo bo‘lgan vaqti yoki qo‘llanib kelayotgan davrini ko‘rsatuvchi aniq belgiga ega emas. Shu bilan birga, tilning lug‘at tarkibi yangi so‘zlar bilan boyib borish jarayoni doimiy ravishda sodir bo‘ladi. Til jamiyatda yuzaga keladigan yangi tendensiyalar va turmush sharoitidagi o‘zgarishlarga moslashib boradi.

Yangi so‘zlarga bo‘lgan ehtiyoj ko‘pincha moddiy olamda yaratilayotgan predmetlar hamda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni ifodalash zaruratidan kelib chiqadi. Yangi predmetlar, texnologiyalar va mahsulot turlarining paydo bo‘lishi odatda yangi nomlarning yaratilishi bilan bir vaqtning o‘zida yuz beradi.

Ijtimoiy inqiloblar, davlat yoki jamiyat tuzumi yangilangan davrlarda, ayniqsa, ko‘plab neologizmlar yuzaga keladi. Neologizmlarning tilga kirib borishida radio, televideniye, internet, gazeta va jurnallar kabi ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi.

Yangi so‘zlarning paydo bo‘lish vaqtini xronologik jihatdan aniq qayd etish juda murakkab jarayondir. Tilning lug‘at tarkibiga kirgan yangi leksikaning paydo bo‘lish sanasi kamdan-kam hollarda aniq ko‘rsatiladi, hatto buni ayrim hollarda tasodifiy hol deb baholash mumkin. Tashkilotlar, korxonalar va terminologik birliklar kabi rasmiy nomlar ham bundan mustasno emas. Ba’zan so‘zni muayyan shaxsga

bog‘lash yoki uni aniq bir hodisa bilan aloqador deb hisoblash holatlari uchraydi, biroq amalda bu so‘zlar ancha oldin paydo bo‘lgan bo‘ladi. Shunga qaramay, ayrim hollarda «qanotli so‘zlar», siyosiy atamalar va tarixiy voqealarning nomlarini alohida qayd etish mumkin.

Neologizmlarni o‘rganishga rossiyalik tilshunoslar V.G. Gak [2] va V.I. Zabotkina [4] katta hissa qo‘shganlar. Ularning fikrlariga tayangan holda neologiyaning quyidagi jihatlariga e’tibor qaratish mumkin:

1. yangi so‘zlar va so‘z ma’nolarini tadqiq etish usullarini aniqlash;
2. yangi so‘zlarning paydo bo‘lish sabablarini jamiyatning pragmatik ehtiyojlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish;
3. neologizmlarning yasalish modellari va qo‘llanish sohalarini tahlil qilish;
4. tilning ijtimoiy jihatdan farqlanishini hisobga olgan holda, turli muloqot sharoitlarida ularning pragmatik chegaralangan qo‘llanishini ko‘rsatish hamda leksikografik nuqtai nazardan qayta ishlash.

Mazkur muammolarni hal etishda tilshunos olimlar yangi so‘zlar nima sababdan paydo bo‘lishi, ularni kimlar va qanday yaratishi, yangi birliklar tilning leksik tizimiga qay tarzda kirib borishi hamda unga qanday moslashishi kabi qator savollarga javob topishlari zarur bo‘ladi.

Neologizmlar – muayyan tarixiy davr uchun mutlaqo yangi bo‘lgan leksik birliklar hisoblanadi. Bunday so‘zlar hali faol lug‘at tarkibiga to‘liq kirib ulgurmagan bo‘ladi, shu sababli ular jamiyatning ma’lum qismi uchun notanish bo‘lib qolishi mumkin.

Yu.N. Nesvetaylo ishlarida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga ta’sir qiluvchi ekstralingvistik va intralingvistik omillar haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. Global ilmiy-texnik taraqqiyot, qayta ishlanadigan axborot hajmining ortishi hamda ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi neologizmlar paydo bo‘lishining asosiy sabablaridan hisoblanadi. Zotan, axborot asri va ilmiy-texnik inqilob davrida yangi realiyalar haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish zarurati tufayli neologizmlar yuzaga kelish jarayoni yanada tezlashadi [7.12]. Uning fikrlarini qo‘llab-quvvatlagan holda L.B. Gatsalova yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga sabab sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi:

1. yangi so‘zlar va yangi ma’nolarning shakllanishiga ijtimoiy-tarixiy sharoitning ta’siri;
2. til lug‘at tarkibining rivojlanishiga ichki qonuniyatlarning ta’siri [3.15].

Intralingvistik omillar tilning ichki jihatdan yangilanish jarayonini tezlashtiradi. Bu omillar tilning ichki lug‘aviy zahirasiga yangi birliklar qo‘shilishi orqali uning rivojlanish imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Biroq ichki omillar tashqi

omillarga ham bog‘liq bo‘lib, ular til tizimini faollashtiradi, yangi hodisalarning yuzaga kelishi va yangi predmetlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Tashqi omillar ichki omillardan, asosan, ularning namoyon bo‘lish bosqichi va darajasi bilan farqlanadi. Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi global jarayonlar tashqi omillarga kiradi, tilning tarkibiy o‘zgarishlari esa uning ichki imkoniyatlari asosida, maxsus lingvistik tadqiqotlar orqali aniqlanadi.

Kommunikatsiya vositasi hisoblangan tilning o‘zgarishlarga uchrashi tabiiy hol, chunki undan foydalanuvchilar o‘z nutqida yangi hodisa va kashfiyotlarni ifodalash uchun doimo yangi so‘zlardan foydalanadilar. Odatda, tilning ichki shakllanish jarayoni sezilmaydigan tarzda kechadi, yangilik belgisi juda zaif ifodalanadi, ayrim hollarda esa til egalari nutqida keng qo‘llanilishi natijasida butunlay yo‘qolib ketadi. Bu holat til evolyutsiyasining ichki qonunlari yetarlicha o‘rganilmaganligi bilan birga, tadqiqotchilarning neologizmlar paydo bo‘lishining intralingvistik omillariga kamdan-kam murojaat qilishini ham tasdiqlaydi.

O.S. Axmanovaning lingvistik atamalar lug‘atida neologizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: «Neologizm yangi (ilgari mavjud bo‘lmagan) predmet yoki yangi tushunchani ifodalash uchun yaratilgan so‘z yoki so‘z birikmasidir».

Til tizimidagi boshqa so‘zlardan neologizmlar ommaviy ong tomonidan qayd etilishi va muayyan davr bilan uzviy bog‘liqligi orqali ajralib turadi. Leksikolog va leksikograflar ma’lum bir davr oralig‘ida tilga kirib kelgan so‘zlarni yangi so‘z sifatida baholaydilar. Jamoaviy lisoniy ong yangi so‘zga yangilik sifatida munosabat bildirar ekan, har qanday yangi birlik neologizm xususiyatiga ega bo‘ladi, deb qaraladi [1.271]. Leksikograflar, odatda, so‘nggi 20–25 yil ichida paydo bo‘lgan so‘zlarni yangi so‘zlar qatoriga kiritadilar.

Neologizm tushunchasini tahlil qilishda ikki asosiy yondashuv mavjud: birinchisi – tilning mavjud so‘z yasash usullari asosida qayta yaratilgan birliklar; ikkinchisi – ilgari mavjud bo‘lmagan mutlaqo yangi tushuncha va terminlarni ifodalovchi birliklar. Masalan: *reactor* – yadroviy qurilma, *biocide* – biologik qurol. Bunday birliklar o‘ziga xos neologizmlar bo‘lib, ular mavjud tushunchani ifodalash uchun yaratilgan bo‘lsa-da, o‘zida yangi semantik va stilistik xususiyatlarni mujassam etadi. Masalan, *boffin* (harbiy sohadagi maxfiy ishlarda faoliyat yurituvchi olim) so‘zi *scientist* so‘ziga sinonim bo‘lsa-da, u o‘ziga xos qo‘shimcha semantik belgilar bilan ajralib turadi. Shuningdek, bunday leksik birliklarning tarkibi, paydo bo‘lish sabablari, til tizimidagi barqarorligi, qo‘llanish doirasi va keyingi taqdiri – ya’ni ularning ayrimlari tilga mustahkam kirib borishi, boshqalari esa qisqa muddat ichida iste’moldan chiqib ketishi – ham muhim jihatlar hisoblanadi.

Xulosa. Demak, har qanday jonli tilning lug‘at tarkibi hech qachon turg‘un bo‘lmaydi, aksincha u doimo o‘zgaradi va rivojlanadi. Til leksikasidagi o‘zgarishlar ham intralingvistik, ham ekstralingvistik omillar ta’sirida yuzaga keladi, aksariyat hollarda esa bu ikki omilning uyg‘unlashuvi natijasida sodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов / О.С.Ахманова. – 2-е изд., стер. – М: УРСС: Едиториал УРСС, 2004. – 571 с.
2. Гак В.Г. Сопоставительная лексикология: на материалефранцузского и русского языка / В.Г. Гак. – М.: Международные отношения, 1977. – 246 с.
3. Гацалова Л.Б. Неология в современной лингвистике [Монография]. Владикавказ: Изд-во СОГУ, 2005. 363 с.
4. Заботкина В.И. Новая лексика современного английского языка: Учебное пособие. – М.: Высшая школа, 1989. – 124 с.
5. Касьянова Л.Ю. Когнитивно-дискурсивные проблемы неологизации в русском языке конца XX – начала XXI века: дис. … д-ра филол. наук / Л.Ю. Касьянова. – Астрахань, 2009. – 401с.
6. 6.Москалева М.В. Неологизмы и проблема их изучения в современном русском языке // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. 2008. № 80. С.246–249.
7. Несветайло Ю.Н. Неологизмы и окказионализмы как конституенты лексического макрополя современного английского языка: системный и словообразовательный аспекты: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ставрополь, 2010. – 18 С.
8. Пауль Г. Принципы истории языка. / Г. Пауль. – М.: Иностранная литература, 1960. – 500 с.
9. *Степанова М.Д., Чернышева* И.И. *Лексикология современного немецкого языка*. На *немецком языке*. – *М*.: Академия, *2003*. – 252 с.
10. Тропина И.А. Наречия-инновации: лингвопрагматический аспект: лингвопрагматический аспект: автореф. дис. ... канд. филол. наук. Ростов-н/Д., 2007.– 23 С.
11. Яцук Н.Д. Лексические новообразования в прозе и публицистике Ю.М. Полякова: автореф. канд. филол. Н. – Ижевск, 2011. – 26 с.